
UCh AVLOD UCHRASHUVI

Kuni-kecha tumandagi 12-umumta'lim maktabida zarkentlik Rahimberdi ota To'xtaboyevning xotirasiga bag'ishlangan "Xotirangiz mangu barhayot" nomli "Uch avlod" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'z olganlar Raximberdi ota To'xtaboyevning hayot yo'li haqida to'xtalib o'tdilar. Ushbu qishloq farzandi R. To'xtaboyev ikkinchi jahon urushidan so'ng, qiyinchilik davrida o'z qishlog'i, tumani uchun samarali xizmat ko'rsatgan. U insonning sa'y-harakati bilan qishloq xo'jaligi yanada rivojlandi.

Tadbirda yoshi ulug' otaxonlar o'quvchilarga ushbu fidoiy inson haqida so'zlar berdilar. Tadbir so'ngida o'quvchilar tomonidan ijro etilgan she'r- qo'shiqlar, raqs va sahna ko'rinishlar tadbir ishtirokchilariga ko'tarinkilik bag'ishladi.

2023-04-15 14:24:00